

BUXORO AMIRLIGI HUDUDIDA YASHAGAN XALQLARNING ETNIK TARKIBI*Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li**Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligi hududida yashagan xalqlarning etnik tarkibi, ularning tarixiy shakllanish jarayonlari va madaniy hayoti tahlil qilingan. Amirlikdagi etnik guruhlar, jumladan, o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, arablar va boshqa millatlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi o'zni hamda o'zaro munosabatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va etnografik ma'lumotlar asosida mintaqaning ko'p millatli tarkibining xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, etnik tarkib, o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, etnik xilma-xillik, tarixiy manbalar, ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniy tarix.

Abstract: This article analyzes the ethnic composition of the peoples living in the territory of the Bukhara Emirate, the processes of their historical formation and cultural life. The role and mutual relations of ethnic groups in the emirate, including Uzbeks, Tajiks, Kazakhs, Turkmens, Arabs and other nationalities in socio-political and economic life, are considered. The article highlights the features of the multinational composition of the region based on historical sources, archival documents and ethnographic data.

Keywords: Bukhara Emirate, ethnic composition, Uzbeks, Tajiks, Turkmens, ethnic diversity, historical sources, socio-political life, cultural history.

Аннотация: В данной статье анализируется этнический состав народов, проживающих на территории Бухарского эмирата, процессы их исторического формирования и культурной жизни. Рассмотрена роль этнических групп эмирата, в том числе узбеков, таджиков, казахов, туркмен, арабов и других национальностей в общественной, политической и экономической жизни, а также их взаимоотношения. На основе исторических источников, архивных документов и этнографических данных в статье описываются особенности полиэтнического состава региона.

Ключевые слова: Бухарский эмират, этнический состав, узбеки, таджики, туркмены, этническое разнообразие, исторические источники, общественно-политическая жизнь, история культуры.

Kirish.

Buxoro amirligi, Markaziy Osiyoning muhim tarixiy davlatlaridan biri sifatida, uning hududida yashagan xalqlarning boy va rang-barang etnik tarkibi bilan ajralib turadi. Amirlik hududi asosan hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, va qisman Turkmaniston hududlarini qamrab olgan bo'lib, uning yerlarida turli davrlarda ko'plab elatlar va xalqlar yashagan. Bu yerda yashagan aholining etnik xilma-xilligi nafaqat tabiiy-geografik sharoitlar, balki savdo yo'llari, madaniy aloqalar va siyosiy jarayonlar orqali shakllangan. Bu hududda yashovchi aholi savdo, hunarmandchilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan, bu esa amirlikning iqtisodiy barqarorligiga va madaniy boyligiga hissa qo'shgan. Hududning strategik geografik joylashuvi

va xalqaro savdo yo'llarining kesishmasida joylashgani bu etnik xilma-xillikni shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

Tatqiqot metodologiyasi:

Qiyoslash, taqqoslash, solishtirish.

Adabiyotlar tahlili:

Mavzuni yoritish uchun bir nechta ilmiy asar va maqolalardan, shu bilan birga xorijiy adabiyotlardan ham keng foydalanildi. Jumladan, Bahodir Eshovning "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi", Jamshid Shodiyevning "Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi", Akbar Zamonov va Alisher Egamberdiyevning "Buxoro amirligi tarixi" shu bilan birga, Amir Olimxonning "Buxoro xalqining hasrati tarixi" kabi manba va asarlar taxlil qilinadi.

Muhokama va natijalar:

Ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez ko'paya boshlaydi. XIX asrning boshlariga kelib, amirlik aholisi taxminan 2 mln.dan oshiq, 50-yillariga kelib taxminan 2,5 mlndan ortiq kishini tashkil etgan. Buxoro shahrida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqand shahrida esa taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan. Amirlik aholisining katta qismini o'zbeklar tashkil qilgan bo'lib, juda ko'plab o'zbek urug'lari vakillari amirlikning deyarli barcha hududlarida yashagan. Aholi tarkibidagi tojiklar Samarqand, Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, tog'li tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko'lob, Shahrisabz, Qo'bodiyon, Yakkabog' bekliklarida, Zarafshonning yuqori qismida istiqomat qilganlar. Turkmanlar ham Buxoro amirligi aholisining son jihatdan katta qismini tashkil etgan. Ular amirlikka qarashli bo'lgan Amudaryoning ikki qirg'og'ida joylashgan yerlarda, ya'ni amirlikning janubiy va g'arbiy hududlarida istiqomat qilishgan. Buxoro amirligi hududida aholining kichik qismini arablar tashkil etgan bo'lib, ular asosan Qarshi va Sherobod bekliklarida yashaganlar.[1] Buxoro amirligi hududida hindlar, eroniylar, yahudiylar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmiqlar ham istiqomat qilganlar. Bu hududda istiqomat qilgan nomahalliy xalqlar, jumladan, hindlar va yahudiylar ijtimoiy qatlam sifatida to'la huquqqa ega emas edilar va ular alohida mavzelarda yashaganlar. Amirlikda o'troq aholidan tashqari tog'oldi va dasht hududlaridako'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi ham yashagan.[2] Buxoro amirligida mahalliy aholi bilan bir qatorda, diniy e'tiqodlari turlicha bo'lgan turli xil xalq vakillari ham istiqomat qilishgan. Mahalliy aholi o'z vaqtida qo'shni mamlakatlar, uzoq-yaqin shaharlar aholisi vakillariga xayrixohlik bilan qaraganlar. Shaharlarda turli xalq vakillariga yer ajratib berilib, bu manzillarga ularning mahallalari yuzaga kelgan. Tarixiy adabiyotlarning xabariga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Buxoroda «Yahudiylar mahallasi, shahar atrofida tatar mahalla, Afshar mahalla» va boshqalar mavjud bo'lgan. Mazkur aholining erkin yashashi, diniy e'tiqodlari uchun tegishli sharoitlar yaratib berishgan. Yahudiylar amirlikning Buxoro, Samarqand, Qarshi, Kattaqo'rg'on va boshqa yerlarida yashashgan. XIX asr 20-yillarida Buxoroda bo'lgan Y.K. Meyendorof povtaxtdagi 3 ta ko'chada yahudiylar yashaganligi, Samarqandda ularning alohida mahallasi borligini qayd etgan. Yahudiylar maktabi va sinagogi Buxoroda va Samarqandda ham bo'lgan. Xonlikda shuningdek, hindlar, afg'onlar, ruslar, armanlar, tatarlar, forslar, qalmiqlar va boshqalarni ham uchratish mumkin bo'lgan. Buxorodagi No'g'ay Saroyida ko'p sonli rossiyalik tatarlar istiqomat qilishgan.[3] Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi xilma-xil edi. Vardonze, Samarqand, Qarshi atroflarida yashab, amirlik bozorlariga qora va kulrang qorako'l yetkazub bergan arablar aholining uncha katta

bo'lmagan qismini tashkil etgan. Amir Haydar tomonidan to'rt ming marvlik oilaning Samarqand atrofiga ko'chirilishi bilan soni ortgan forslar, turkmanlar, dasht yerlari va mamlakatning shimolida, shuningdek, Zarafshon vodiysida yashagan qoraqalpoqlar, shimloisharqda yashagan Kichik va O'rta juz qozoqlari vakillari ham aholining muayyan qismini tashkil qilgan. Mamlakatda "Buxoro yahudiylari", Samarqand va Qorako'l atrofida yashagan lo'lilar, shuningdek, bu yerga turli maqsadlarda kelib, qolib ketgan ruslar, tatarlar, afg'onlar, hindlar, qalmiqlarni ham uchratish mumkin edi. Poytaxt shaharda yahudiylarning 800 oilasi yashagan.[4]

Xulosa. Buxoro amirligi xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va turli etnik guruhlarining birgalikdagi yashash tajribasi nafaqat mintaqa tarixida, balki bugungi kunda ham ahamiyatga ega bo'lib, xalqaro hamjihatlik va o'zaro hurmatning namunasini ko'rsatadi. Bu etnik xilma-xillik faqat tarixiy hodisa emas, balki mintaqaning madaniy merosining ajralmas qismidir. Shu bois, Buxoro amirligining etnik tarkibini o'rganish nafaqat o'tmishni anglash, balki bugungi kun va kelajak uchun muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodir Eshov "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi", Yangi asr avlodi – Toshkent 2019
2. R.E. Xoliqova "XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya – Buxoro munosabatlari" – Toshkent 2006
3. B.J. Eshov, A. A. Odilov "O'zbekiston tarixi" II kitob (XIV asr o'rtalaridan - XIX asr ikkinchi yarmigacha) "Donishmand ziyosi" - Toshkent 2020
4. Akbar Zamonov va Alisher Egamberdiyev "Buxoro amirligi tarixi" – "Tamaddun" nashriyoti – Toshkent 2022
5. Jamshid Shodiyev "Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi" - Toshkent 2010
6. Amir Olimxon "Buxoro xalqining hasrati tarixi" – Toshkent: Fan, 1991

